
Ilg'or terimchilar rag'batlantirildi

Farg'ona shahrida yashovchi fuqarolar ham paxta hosilini terib olish ishlarida faol ishtirok etishmoqda. Har kuni shahrimizning barcha hududlarga ularni olib ketish uchun avtobus tashkillangan. Ayni kunlarda 500 nafarga yaqin terimchilar ommaviy hasharda ishtirok etishmoqda.

Bugun shahar hokimining tashabbusi bilan qo'shni Farg'ona tumanidagi hasharchilarga yordam berayotgan terimchilarimizning Oqbilol mahallasi yerlaridagi qismi bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'linmasi rahbari Azizbek Soyibnazarov hamda kotibiyat mudiri Sherzodjon Kamalovlar uchrashdilar.

Shahar hokimligi vakillari terimchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Ular bilan o'tkazilgan suxbat davomida shahar hokimligining esdalik sovg'alari hamda badiiy adabiyotlar topshirildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-09-22 17:54:56